

O'ZBEK VA TURK TILLARIDA "KO'Z" KOMPONENTLI IBORALAR HAQIDA

(A.Qahhorning "O'g'ri" va Rashot Nuri Guntekinning
"Choliqushi" asarlari misolida)

Tursunboyeva Zuhra Normatovna,

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, tillar fakulteti tyutori

Annotatsiya. Ushbu maqolada, o'zbek tili va turk tillaridagi ko'z komponentli somatik iboralar Abdulla Qahhorning O'g'ri hikoyasida hamda turk yozuvchisi Rashot Nuri Guntekinning "Choliqushi" asarlarida ishlatilish o'rinlari va ularning qo'llanilish doirasi tahlilga tortiladi. O'zbek va turk tillarida ko'z bilan bog'liq iboralar turli xil ma'no ottenkalarini ifodalaganligini ko'rishimiz mumkin. Tilshunoslikda simbolik va figurativ ma'nolarni yaratishda ham iboralar muhim rol o'ynaydi. Bu ishda, ko'z komponenti orqali ifodalangan iboralarining strukturasi, ma'nolarini va ularning xalq madaniyati bilan bog'liqligini tahlil qilish orqali, har ikki tilning o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar. Ko'z, ibora, madaniyat, simbolizm, hissiyot, psixologik tasvir, madaniy tafovut.

ÖZBEK VE TÜRK DİLLERİNDE GÖZ BİLEŞENLİ DEYİMLER HAKKINDA

(A.Qahhar'in "Hırsız" ve Reşat Nuri Gültekin'in
"Çalıkuşu" eserleri üzerine)

Tursunboyeva Zuhra Normatovna,

öğretmen, Dil Fakültesi, Özbek-Finlandiya Pedagoji Enstitüsü

Özet. Bu makalede, Abdullah Kahhar'ın "Hırsız" adlı öyküsünde ve Türk yazarı Reşat Nuri Güntekin'in "Çalıkuşu" adlı eserinde göz bileşenli deyimlerin Özbek ve Türk dillerinde kullanımı ve bunların uygulama kapsamı incelenmektedir. Özbek ve Türkçede gözle ilgili ifadelerin farklı anlam ifade ettiğini görüyoruz. Dil biliminde deyimler sembolik ve mecazi anlamların yaratılmasında da önemli rol oynamaktadır. Bu çalışma, göz bileşeni aracılığıyla ifade edilen deyimlerin yapısını, anlamlarını ve kültürel bağlantılarını analiz ederek her iki dilin kendine ait özelliklerini ortaya koymaktadır.

Anahtar kelimeler. Göz, ifade, kültür, sembolizm, duygu, psikolojik etki, kültürel farklılık.

О ФРАЗАХ С КОМПОНЕНТОМ «ГЛАЗА» В УЗБЕКСКОМ И ТУРЕЦКОМ ЯЗЫКАХ

(На примере рассказа А.Каххора «Угри» и Рашода Нури Гюльтека «Чоликуш»)

Турсунбоева Зухра Норматовна,

тьютор Факультета языков Узбекско-Финского педагогического института

Аннотация. В данной статье анализируется употребление выражений с компонентом глаз в узбекском и турецком языках в повести «Угри» Абдулла Каххор и в произведениях турецкого писателя Рашода Нури Гюльтекина «Чаликуши» и сфера их применения. Мы видим, что выражения, связанные с глазом, в узбекском и турецком языках имеют разные оттенки смысла. В лингвистике идиомы также играют важную роль в создании символических и образных значений. В данной работе демонстрируются уникальные особенности обоих языков путем анализа структуры и значений выражений, выраженных через глазной компонент, а также их связи с народной культурой.

Ключевые слова. Глаза, выражение, культура, символизм, эмоция, психологический образ, культурные различия.

ON PHRASES WITH EYE COMPONENTS IN UZBEKISTAN AND TURKISH LANGUAGES

(As an example of A.Kahkhor's story "The thief"
and Rashot Nuri Gultek's works "Cholikush")

Tursunboyeva Zuhra Normatovna,

Tutor, Faculty of Languages, Uzbek-Finnish pedagogical institute

Annotation. This article analyzes the use of eye-related expressions in the Uzbek and Turkish languages in the story of Abdullah Kahhornig the Thief and in the works of the Turkish writer Raşot Nuri Guntekin "Çolikushi" and their scope of application. We can see that eye-related expressions in the Uzbek and Turkish languages express different shades of meaning. Expressions also play an important role in creating symbolic and figurative meanings in linguistics. In this work, the specific features of both languages are shown by analyzing the structure, meanings and their connection with folk culture of expressions expressed through the eye component.

Keywords. Eye, expression, culture, symbolism, emotion, psychological image, cultural difference.

Frazeologizmlar – barqaror birliklar bo‘lib, ular nutqqa ko‘chganda yorqinlik, aniqlik va ta’sirchanlik bag‘ishlaydi. Nutqda frazeologik birliklardan foydalanish tilni boyitadi, uni rang-barang va jozibador bo‘lishiga xizmat qiladi. Frazeologiya har qanday tilning eng boy xazinasi hisoblanadi. Shu bilan birga, frazeologik birliklar nafaqat ifoda vositasi, balki ma’lum bir xalq uchun ahamiyatga molik bo‘lgan ma’nolarni aks ettiruvchi milliy madaniyat ko‘zgusidir. Frazeologizm, frazeologik birlik, frazema – ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan, ma’no jihatdan o‘zaro bog‘liq so‘z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan va bo‘linmaydigan, barqaror (turg‘un) bog‘lanmalarning umumiy nomidir [4, 26 b.]. O‘zbek va turk tillari turkiy oilaga mansub bo‘lib, bu tillarda “ko‘z” so‘zi bilan bog‘liq ko‘plab iboralar mavjud. Masalan, O‘zbek va Turk tillarida qo‘llaniladigan “ko‘z” komponentli iboralari o‘xshash bo‘lib, ular deyarli bir xil ma’noda qo‘llaniladi [6, 162 b.]. Quyida har ikkala tilda ham ishlatilishi mumkin bo‘lgan “ko‘z” komponentli somatik iboralarni ikki tildagi variantlarini ko‘rib chiqamiz:

Ko‘z tegmasin / Naazar deg‘mesin – yomon ko‘zdan saqlash ma’nosida ishlatiladi.

Nazardan saqlansin, ko‘z qadamasin / nazar almasin Ko‘z ochmoq / Göz açmak – biror narsani tushuna boshlash, bilimga ega bo‘lish.

Fahmlamoq, idrok etmoq / idrak etmek, farkına varmak, ko‘zdan kechirmoq / Gözden geçirmek – diqqat bilan tekshirib chiqmoq.

Sinchiklab o‘rganmoq, ko‘rib chiqmoq / incelemek, kontrol etmek ko‘z oldida / Göz önünde – kimningdir ko‘rish doirasida yoki xayolida mavjud bo‘lish.

Xayolda, nazar oldida / akılda, hafızada Ko‘z-quloq bo‘lmoq / Göz kulak olmak – e’tibor bilan kuzatmoq, g‘amxo‘rlik qilmoq.

Diqqat bilan qaramoq, kuzatmoq / dikkat etmek, ilgilenmek Ko‘z yumib turmoq / Göz yummak – biror xatoni bilib turib, unga e’tibor bermaslik.

E’tiborsiz qoldirmoq, bilmaganga olish / görmezden gelmek, aldurmamak kabi misollar keltirishimiz mumkin.

O‘zbek va turk adabiy asarlarida ko‘z lingvomadaniy tushuncha sifatida eng ko‘p qo‘llaniladigan vositalardan biri hisoblanadi. Ularning asarlarini qiyosiy o‘rganadigan bo‘lsak, har ikki tilda ham ko‘z komponentli iboralarning bir-biriga yaqin ma’nolarda ishlatilganligini ko‘rishimiz mumkin. Misol tariqasida o‘zbek adibi Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasi va turk

yozuvchisi Reşat Nuri Guntekinning "Çalıkuşu" asarida ko'z komponentli iboralari keng qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin. Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasida ko'z orqali qahramonlarning ruhiy holatlari, ular tomonidan amalga oshirilgan harakatlarning ma'nosi va ichki kechinmalari aks ettirilgan. "O'g'ri" hikoyasida shunday yozilgan: *Qobil boboning qo'shnisi-burunsiz ellikboshi kirdi. U og'ilga kirib teshikni, ho'kiz bog'langan ustunni diqqat bilan ko'zdan kechirdi* [1, 16 b.]. Bunda "ko'zdan kechirmoq" iborasi diqqat bilan qaramoq, sinchiklab qaramoq ma'nolarida qo'llangan. Iboralarning qo'llashdan maqsad adib asarning badiiyligini buzmaslik uchun ham "ko'zdan kechirmoq" iborasini qo'llagan. Asarni o'qigan insonni bunga qiziqtirish uchun ham bu usul juda qo'l kelgan va asar jozibasini oshirgan. Asarda ko'z bilan bog'liq juda ko'plab iboralarni misol sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Yana bir misol: *"Uning ko'zlari hech narsa sezmasdi"* – bu ibora qahramonning ruhiy sustlashganligi, ichki inqirozi yoki tashqi dunyoga bo'lgan befarqligini ifodalaydi. Ko'zlar bu yerda sezgi va anglashning yo'qligini bildiradi, bu esa o'g'ri obrazining muhim xususiyatidir. *"Ko'zlari porladi"* – bu ibora qahramonning biror narsaga qarshi yuqori darajada ishtiyoqini yoki shahvatini tasvirlaydi. Ko'zlarning porlashi, ruhiy va jismoniy holatni ifodalaydigan qudratli belgiga aylanadi. *"Ko'zlari uchib ketdi"* – bu ibora, qahramonning biror voqeadan yoki g'ayrioddiy holatdan hayajonlanishi yoki ta'sirlanishini ifodalaydi. Ko'zlar bu yerda odamning hayajonini va o'zgarishlarga tezda javob berishini ifodalaydi.

Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasida ko'z tasvirlari insonning ichki va tashqi dunyo bilan bog'lanishini, hissiyotlarini, ruhiy holatini va ijtimoiy o'zgarishlarni ifodalashda ishlatilgan. Ko'z, bu asarda qahramonlarning qarorlarini va atrofdagi dunyo bilan aloqalarini chuqurroq ko'rsatadigan asosiy belgiga aylanadi.

Turk yozuvchisi Reşat Nuri Guntekinning "Çalıkuşu" asarida "ko'z" so'ziga oid iboralar ko'plab hissiy holatlar va xarakterlarning tasvirlanishida ishlatilgan. Asardan "ko'z" komponenti bilan bog'liq ba'zi iboralardan misollar keltiramiz: Asarda so'z bilan bog'liq shunday jumlar yozilgan: *Feride kecha kech qurun qanday ahvolda eding? Ertalab ikki soat uxlamasdan darrov turib ketding. Ahvoling charchagan kishiga o'xshamaydi. Ranging noppa-nozanday ko'zlaring porlaydi* [2, 125 b.]. Bunda "Ko'zlari porlaydi. "Iborasi hayajon, g'azab yoki hayrat kabi kuchli his-tuyg'ularni ifodalashda ishlatilgan. Yana bir misol: *Bir burchakka tiqilib ko'zlarimni yumib oldim.* Bunda *"Ko'zlarimni yumib olidim"* iborasi Ferida biror voqeani, og'riqli holatni yoki shunchaki biror narsaga rozi bo'lmagan paytda ko'zlarini yumishi mumkin. Bu ibora ko'pincha ruhiy yengillik va tinchlanish holatlarini ifodalaydi. Asarda ko'z iborasi bilan bog'lik juda ko'p misollarni keltirish mumkn. *"Ko'zlarini yerga tikdi"* bu ibora Feridening o'zini noqulay his qilgan, muayyan vaziyatda uyalgan paytlarida ishlatiladi. *"Ko'zlari yoshga to'ldi"* – bu ibora Feridening qayg'uli yoki juda ta'sirlangan holatlarini tasvirlaydigan ibora. *"Ko'zlari chaqnadi"* – g'azab, kuchli norozilik yoki g'alaba tuyg'ulari tasvirlanadigan paytlar uchun ishlatiladi. *"Ko'zlari kuchli qaradi"* biror kishiga qattiq e'tibor qaratilgan, jiddiy qarash yoki hurmat ko'rsatilgan holatlarda ishlatiladi. *"Ko'zlaridan do'stona nurlar chiqdi"* – bu ibora Feridening iliq, mehrli va samimiy munosabatlarini ifodalash uchun ishlatilgan.

Kuzatishlarimiz natijasida shunga amin bo'ldikki, Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasida va Reşat Nuri Guntekinning "Çalıkuşu" asarida qo'llanilgan "ko'z" komponentli iborasining asosiy farq shundaki, "O'g'ri" hikoyasida ko'z iboralari realistik va hissiy holatlarni aks ettiradi. Bu asarda ko'zlar odatda kishilarning ichki kurashlari, noxush tuyg'ulari va muammolarini ifodalash uchun ishlatilgan. Asarda ko'zlar aniq, bevosita va real holatlar bilan bog'liq jarayonlarda aks etgan. "Çalıkuşu" asarida esa ko'z komponentli iboralar romantik, poetik va ruhiy o'zgarishlarni tasvirlashda ishlatiladi. Bu yerda ko'zlar kishining ichki dunyosidagi baxt, sevgi, qayg'u yoki umid kabi noaniq, chuqur tuyg'ularni ifodalash uchun ishlatilganligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, "O'g'ri" hikoyasida ko'z iboralari realistik va ijtimoiy holatlarni aks ettirgan bo'lsa, "Çalıkuşu" asarida ular ko'proq tasavvufiy, romantik va ruhiy izlanishlarni ifodalashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, o'rganishlarimiz shuni ko'rsatadiki, "ko'z" komponenti ishtirok etgan iboralarning soni anchagina bo'lib ular turli xil ma'nolarga ega. Bu esa ko'zlar hayotimizda qanchalik ahamiyatli va serma'no ekanligini namoyon etadi. O'zbek va turk tillarida ko'z bilan bog'liq iboralar insonning psixologik xulq-atvorini, ichki kechinmalarini ifodalashga xizmat qiladi. Shuning uchun ham har ikki tilda ham badiiy asarlarda iboralar ko'p qo'llaniladi. Har ikkala asar ham ko'z iboralari orqali insonlarning ichki dunyosini, hissiyotlarini va ruhiy holatini tasvirlaydi. Ammo farq shundaki, "O'g'ri" hikoyasida ko'zlar ko'proq realistik, ijtimoiy va psixologik tasvirlar uchun ishlatiladi, "Çalıkuşu" asarida esa ko'zlar ko'proq romantik, poetik va ruhiy o'zgarishlar bilan bog'lanadi. "O'g'ri" asaridagi ko'z iboralari kishilarning ijtimoiy muammolari va ichki ziddiyatlarini aks ettirsa, "Çalıkuşu" asarida ular qahramonning ruhiy holatidagi noaniqlik va chuqur hissiy tuyg'ularni ifodalaydi. Ko'rinadiki, har ikki tilda ko'z bilan bog'liq iboralarni qiyoslab o'rganish tilshunoslik va lug'atshunoslik uchun qimmatli materiallar beradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Qahhor. O'g'ri. Yangi O'zbekiston nashriyoti. –Toshkent, 1967, 190 b.
2. R. N. Guntekin. Çalıkuşu. Kalem nashriyoti. – Istanbul, 2022, 384 s.
3. M. K. Ismoilov. (tarj.) Çalıkuşu. Adabiyot nashriyoti. – Toshkent, 1997, 236 b
4. Sh. Rahmatullayev. – O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. O'qituvchi nashriyoti. – Toshkent, 1978, 280 b.
5. Alı Püskülüoğlu. Türkçe deyimler sözlüğü. – Istambul, 2017, 848 s.
6. J.Eltazarov, K.Koç, I.Yoqubov. Özbekçe öğreniyoruz. – Istanbul, Kesit yayınları. 2021, 293 s.